



BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINI KOMMUNAKATIV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Zakirov F.M.

*O‘zFPI Jismoniy madaniyat nazariyasi va
metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi*

Tayanch soʻzlar: jismoniy tarbiya, o‘qituvchi, kommunikativ, didaktika, imkoniyat, intellektual, vazifa.

Ключевые слова: физическое воспитание, учитель, коммуникативный, дидактический, возможность, интеллектуальный, задача.

Key words: physical education, teacher, communicative, didactics, opportunity, intellectual, task.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda bo‘lg‘usi mutaxassislarni kommunikativligini oshirishga qaratilgan vazifalar va uning echimlari borasida fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья направлена на совершенствование дидактических возможностей формирования коммуникативной культуры будущих учителей физического воспитания.

SUMMARY:

This article is aimed at improving the didactic possibilities of forming the communicative culture of future physical education teachers, and it presents ideas on the tasks and solutions aimed at increasing the communicative skills of future specialists.

Jahon ta’limining rivojlanish tendensiyalari negizida, ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini innovatsion tashkil etishni muvofiqlashtirish, har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish, kompetensiyaviy yondashuvlar zahirida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda AQSH, Angliya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarida ta’lim mazmunini zamonaviy yondashuvlar qilish orqali yuksak salohiyatli, shaxslarni tarbiyalashga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo miqosida ta’lim muassasalari tahsil oluvchilarining bilim, ko‘nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, intellektual va jismoniy kamolotini

rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, o'quv predmetlariga sog'lomlashtiruvchi texnologiyalarni joriy etish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi jihatlarini ta'minlash, shu jumladan, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarining kreativligi, ijodkorligini oshirish vazifalari yo'naltirilmoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini innovatsion tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan modernizatsiyalashgan ta'lim boshqaruvini tashkil etishga imkoniyat yaratildi. Ayni paytda jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarga jismoniy tarbiya mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida ularni tarbiyalashning tashkiliy va texnologik asoslarini loyihalash, rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini kommunakativ madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha maqsadli tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4956-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son farmoni[1], 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3031-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini ta'minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini kommunakativ madaniyatini borasida o'zbekistonlik olimlar sohaning turli komponentlari bo'yicha R.Z.Asomova, O.A.Abdullina, X.A.Abduraxmanova, D.N.Arziqulova, R.Z.Gaynutddinov, Z.A.Dexkambayeva, B.R.Djurayeva, Sh.Q.Mardonov, S.Matchanov, B.A.Maxmudov[3], N.A.Muslimov, R.G.Muhammetov, B.X.Raximov, R.SH.Rustamova, N.Sayidahmedov, E.A.Seytxalilov, J.S.Toshmatova, O.Xaydarova, A.R.Xodjabayev, O.A.Qo'ysinov, F.R.Yuzlikayev, Sh.E.Qurbanov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya sohasini rivojlantirishda A.Abdullayev[2], Sh.Xonkeldiyev, L.R.Ayrapetyans, A.Q.Atoyev, Y.CH.Daniyeva, M.T.Isaqov,



F.Kerimov, S.Kupalov, I.A.Kushbaxtiyev, R.Salomov, F.Xo‘jayev, K.Yarashov kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH mamlakatlarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini rivojlantirish borasidagi V.A.Anisimova, E.SH.Arsenova, A.G.Barabanov, N.V.Barisheva, O.G.Jigaryova, X.Ibragimov, V.I.Ilinich, F.S.Ismagilova, L.V.Kapilevich, N.V.Kuzmina, L.P.Matveyev, G.M.Solovyev, N.X.Xakunov, V.M.Shepel va boshqalarning ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari yuzasidan Blake P.B., Brandon L., Cohen, J.E., Darren C., Graf, W., J.H. Uber, Kay R., Kenneth D., Kiel S., Schone R., Zan Gao kabi olimlar jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning ijtimoiylashuvi masalalarining psixologik jihatlari o‘rganilgan.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga ko‘ra, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini shakllantirish borasida tadqiqotlar olib borilmaganligini ta’kidlash mumkin.

Yuqorida keltirilgan asoslarga tayangan holda quyidagi vazifalar belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish uning yetakchi yo‘nalishlari aniqlash;

2. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishga qo‘yiladigan didaktik talablarni belgilash;

3. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini shakllantirish shjarayonning strategiyasi va parametrlarini takomillashtirish;

4. Zamonaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kommunikativ madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda sohaga ixtisoslashgan uchullar, yani muammoga oid falsafiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, o‘quv rejalari va dasturlari, darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni o‘rganish; kuzatish, suhbat, anketa, og‘zaki so‘rov, test singari ijtimoiy-pedagogik metodlar va pedagogik tajriba-sinov, monitoring, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalaniladi.

Olingan natijalarining ishonchliligini qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning suvratiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanadi. Shuningdek, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati jarayon



natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan modellar, mexanizmlar va tarkibiy tuzilmalar ta'lim muassasalarida o'qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishda ko'rinadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son farmon
2. Abdullaev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik, - Farg'ona-2020 y. 286-b.
3. Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent-2023 y. 128-b.